



HORIJDA VAQTDA MEXNAT FAOLIYATINI AMALGA OSHIRAYOTGAN SHAXSLARNING EKSTREMIZM BILAN BOG'LIQ JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA OID AYRIM FIKR VA MULOHAZALAR

Axmedov Vaxob Oydinovich

IIV Akademiyasi magistratura Tashkiliy-taktik
boshqaruvi 2-guruh tinglovchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20121107>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-may 2026 yil
Ma'qullandi: 09-may 2026 yil
Nashr qilindi: 11-may 2026 yil

KEYWORDS

Profilaktik ishlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu xorijga ishlash uchun ketgan shaxslar orasida ekstremizmning oldini olishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, ekstremizmning oldini olishning huquqiy asoslari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

ABSTRACT

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlarning ischil davomi sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar huquqiy demokratik davlat qurishning muhim poydevori hisoblanadi. Huquqiy demokratik davlatda shaxsning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi. Ushbu qadriyatlarni himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashish ichki ishlar idoralarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning ustuvor yo'nalishi – ekstremistik g'oyalarga qarshi qat'iy kurashishdan iboratdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlarning ischil davomi sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar huquqiy demokratik davlat qurishning muhim poydevori hisoblanadi. Huquqiy demokratik davlatda shaxsning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi. Ushbu qadriyatlarni himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashish ichki ishlar idoralarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning ustuvor yo'nalishi – ekstremistik g'oyalarga qarshi qat'iy kurashishdan iboratdir.

Profilaktik ishlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu xorijga ishlash uchun ketgan shaxslar orasida ekstremizmning oldini olishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, ekstremizmning oldini olishning huquqiy asoslari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Yurtimizda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida doimiy ravishda islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, 2000 yil 15 dekabrda qabo'l qilingan O'zbekiston Respublikasining Terroremizmga qarshi kurash to'g'risida Qonuni, 2028 yil 30 iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 iyuldagi PF-6255-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2021-2026 yillarga mo'ljallangan Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvaridagi PF-60-son Farmoni

tasdiqlangan. Ushbu Farmonda 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning samarali mexanizmlarini shakllantirish"ga a'lohida ta'kidlab o'tish lozim.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasidan horijga ishlash uchun ketgan fuqarolar mehnat faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Horijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan jinoyat sodir etilishi jiddiy huquqiy va ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasidan xorijga ishlash uchun ketgan fuqarolar tomonidan chet elda jinoyat sodir etish holatlari uchrab turibdi.

Milliy, etnik, diniy hamda boshqa tashkilotlar va tuzilmalar tomondan O'zbekiston Respublikasining birligi va hududiy yaxlitligini buzishga, mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatdagi beqarorlikka yo'naltirilgan ekstremistik faoliyati davlat va jamoat xavfsizligi sohasida milliy xavfsizlikka tahdidlarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ekstremizmni oldini olish O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta'minlash faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ekstremizmga qarshi kurashda ushbu tushunchaning mazmuni muhim ahamiyatga ega.

Ekstremizm ([lotincha](#): – o'ta, keskin degan ma'nolarni anglatadi) – siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish. Ekstremizmning siyosiy va diniy ko'rinishlari yaqqol ajralib turadi.

Zo'rlik yoki zo'rlik ishlatishga davat qilish. Siyosiy ekstremizm namoyandalari o'zlarining g'arazli maqsadiga erishish uchun kuch ishlatish usullaridan foydalanib, mavjud siyosiy tuzilmalarning barqaror faoliyat yuritishini buzish va yoqotishga harakat qiladi. Bu yo'lda ekstremistik tashkilot a'zolari demokratiya niqobi ostida balandparvoz shiorlar, chaqiriqlarni qo'llab quvvatlaydilar, qonunga rioya etmaslik, ish tashlashlar, tartibsizliklar chiqarishga urinadilar, odamlarni gijgijlaydilar. Ekstremistik tashkilotlarning rahbarlari har qanday murosa va kelishuvni rad etadilar. O'ziga tobelarni o'z buyruq va ko'rsatmalarini ko'r-ko'rona bajarishga majbur etadilar. Siyosiy ekstremizmning millatchilik ko'rinishi turli millat va etnik guruhlar huquqini inkor etishda namoyon bo'ladi. Millatchi ekstremistlar faoliyati separatizm bilan bog'liq bo'lib, ko'p millatli davlatlarni yuqotish, tub millat hukmronligini o'rnatishga qaratiladi. Bunday ekstremizm millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi va xalqlar o'rtasida mojarolar chiqishiga olib keladi. Diniy ekstremizm, avvalo, boshqa konfessiyalarga, ularning vakillariga nisbatan toqatsiz bo'ladi. Diniy tashkilotlardan dunyoviy davlatga qarshi kurashda foydalanadi.

Ekstremizmning turli ko'rinishlari so'nggi vaqtlarda dunyoning ko'p mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqasida ham o'zini namoyon eta boshladi. Turli diniy ekstremistik tashkilotlar („Hizbut-tahrir“, „Tavba“) yangidan mustaqillikni qo'lga kiritgan dunyoviy davlatlarga tahdid solmoqda. Ular vaqtinchalik qiyinchiliklarni ro'kach qilib, aholini, ayniqsa, yoshlar ongini aqidaparastlik g'oyalari bilan zaharlamoqda. Farzandlarni yo'ldan urishga, o'z ota-onasiga, aka-ukasiga, o'zi tug'ilib o'sgan maskaniga, davlatiga qarshi qo'yishga harakat qilmoqda. Bugungi kunda ekstremizmga qarshi kurash o'ta dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ekstremizmga qarshi kurash davlat va konstitutsiyaviy tuzumni mustahkamlash, fuqarolar va millatlararo tinchlikni, hududiy yaxlitlikni ta'minlash, demokratik siyosiy tizimni rivojlantirishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi.

Ekstremizmning tarqalishiga olib keladigan sabab va sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish ekstremizmga qarshi kurashning asosiy qismi hisoblanadi.

Ekstremizmga qarshi kurash — davlat organlari va fuqarolar tomonidan g'ayriqonuniy, zo'rvonlikka asoslangan yot g'oyalarni tarqatish, jamiyatda nizo keltirib chiqarish va konstitutsiyaviy tuzumni ag'darishga qaratilgan harakatlarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish bo'yicha huquqiy, profilaktik va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir. Bu inson huquqlarini himoya qilish, barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.

Ekstremizmga qarshi kurashning ikki asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

- *Ekstremizmga qarshi kurash ekstremistik faoliyatning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralarni ko'rish, shu jumladan ekstremistik faoliyatni amalga oshirishga yordam beradigan sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish;*

- *Ekstremizmga qarshi kurash jamoat va diniy birlashmalar, boshqa tashkilotlar, jismoniy shaxslarning ekstremistik faoliyatini aniqlash, to'xtatish va jazo muqarrarligini ta'minlash.*

Ekstremizmni oldini olishning huquqiy asoslarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun, 2021 — 2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy Strategiyasi, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonun, idoraviy va idoralararo normativ-huquqiy hujjatlarni tashkil qiladi.

Ekstremizm tavsifdagi jinoyatlarni aniqlash, to'xtatish va javobgarlikka tortish tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruvni hamda tergovni o'tkazishga vakolatli huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ekstremizmga qarshi kurashish tezkor-qidiruv faoliyati DXXning tegishli tezkor bo'linmalari, ichki ishlar vazirligining terrorizmga qarshi xizmati bo'linmalari, shuningdek "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunida ko'rsatib o'tilgan boshqa organlarning tezkor bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ekstremizmga qarshi kurashda tezkor bo'linmalar "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan huquqlardan foydalanadilar; shuningdek, ushbu qonunda ko'rsatilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib turgan har kim mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega. Har kim O'zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistonga to'sqinliksiz qaytish huquqiga egaligi belgilab berilgan. Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarolari chet elga ishlash, o'qish va yashash uchun ketadi. Chet elda ishlash uchun ketgan fuqarolar orasida ekstremizm va terrorizmning oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tizimli ishlar olib borish yo'lga quyilgan.

Jumladan;

• **Huquqiy va axborot ko'magi:** [Advice.uz portali](http://Advice.uz) ma'lumotlariga ko'ra, migrantlarning huquqiy, moliyaviy va axborotga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash orqali ularning ekstremistik ta'sirlarga tushib qolishining olish choralari;

• **Mobil ilovalar:** Mehnat migrantlari uchun maxsus mobil ilova ishlab chiqilib, u orqali vatandoshlar bilan onlayn muloqot, bo'sh ish o'rinlari va xavfsizlik bo'yicha maslahatlar berib borish choralari;

- **Profilaktika ishlari:** Ichki ishlar organlari xorijga ketishdan oldin va u yerda bo'lgan vaqtda huquqbuzarlik va jinoyat sodir etmasligi yuzasidan fuqarolar bilan tushuntirish ishlarini olib borish choralari;

- **Moliyalashtirishni oldini olish:** *LEX.UZ saytidagi PF-6255-son farmon* asosida ekstremistik va terrorchilik tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini aniqlash va ularga chek qo'yish orqali migrantlarni jalb qilishga yo'l quyimaslik choralari;

Oxirgi yillarda jahon miqyosida ro'y berayotgan voqealarning tahlili din niqobi ostidagi turli kuchlarning ma'lum bir davlat yoki mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqarorligini izdan chiqarish yo'li bilan amaldagi hokimiyatni egallashga qaratilganligini ko'rsatmoqda. Xususan, Suriya, Misr, Pokiston va boshqa davlatlarda sodir bo'layotgan ijtimoiy beqarorlik siyosiy maqsadlarni ko'zlamoqda. Bunga erishish yo'lida diniy ekstremizm orqali tinch aholi orasida qo'rquv hamda davlat hokimiyatiga nisbatan ishonchsizlik ruhini uyg'otish kabi usullardan keng foydalanilgan. Bugungi kunda yashash manzilidan ishlash uchun uzoq muddatga ketgan shaxslar aniqlash va ular bo'yicha ishlash tartibi belgilangan. Fuqarolarning horijiy davlatlariga ketayotganliklari holatini, ularning maqsadlari va qaerga ketganliklarini aniqlash borasida hududiy profilaktika inspektorlari tomonidan profilaktik tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Doimiy yashash manzilidan ishlash uchun uzoq muddatga chet elga ketgan shaxslarni aniqlab har biri bo'yicha "Uzoq muddatga ketgan shaxs xaqida ma'lumot" varaqasini to'ldirib, tezkor xizmatlarga taqdim etib boradi, uzoq muddatga chet elga ishlash uchun chiqib ketgan shaxslarni, ularning chiqib ketish maqsadlarini aniqlash, bu toifadagi shaxslar, ularning yaqinlari bilan tushuntirish, ogohlikka chaqirish, viktimologik va tezkor-profilaktik ishlarni olib borish, ular orasidan odam savdosi, narkotrafik, diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar sodir etishga yoki ularning qurboni bo'lishga moyil bo'lgan shaxslarni, ularning jinoiy aloqalarini aniqlash, shuningdek diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatga aloqadorligini tekshirish, ularning jinoiy faoliyatini fosh etish va unga chek qo'yish maqsadida muntazam ravishda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirib borishlari lozim.

Horijda vaqtda mexnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarning ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish ishlarni olib borish, ular orasidan ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni, ularning jinoiy aloqalarini aniqlash, shuningdek, diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatga aloqadorligini tekshirish, ularning jinoiy faoliyatini fosh etish va unga chek qo'yish maqsadida muntazam ravishda tezkor-qidiruv va profilaktik tadbirlarni olib borish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytadiganda horijda vaqtda mexnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarning ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashishda yashash manzillaridan ishlash uchun uzoq muddatga chet davlatlarga ketgan fuqarolar bilan doimiy ravishda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirib borish ular o'rtasida huquqni muhofaza qiluvchi organning vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish muhim vazifalaridan biridir.

Horijda vaqtda mexnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar mahalliy qonunlarga rioya qilishlari, mehnat shartnomasini to'g'ri rasmiylashtirishlari va huquqiy yordam uchun Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga murojaat qilishlari tavsiya etiladi.

Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish, O'zbekiston Respublikasining migratsiya qonunchiligi buzilishlarining oldini olish, ogohlantirish, aniqlash va ularga chek qo'yish, shuningdek, bunday qoidabuzarliklar uchun javobgarlik choralarini takomillashtirish;

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>
- 2.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.<https://lex.uz/docs/-111453>.
- 3.O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/3841957>.
3. Ismatov B.A. Ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalarida amalga oshirilayotgan islohotlar. 2022; Volume 3.:1026–32.
4. Joldasov A.F. Jamoat xavfsizligi: tushunchasi, ta'rifi va o'ziga xos xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences. 2021;VOLUME 2:1163–74.
5. Pozdnishev A.N. Institut gosudarstvennoy slujbi v sfere obespecheniya obshyestvennoy bezopasnosti (teoretiko-metodologicheskiye problemi) [Dis.... d-ra. yurid. nauk]. [M.]; 2003.
6. Bosxamdjiyeva N.A. Administrativno-pravoviye osnovi obespecheniya obshyestvennoy bezopasnosti v Rossiyskoy Federasii [dis... dokt. yurid. nauk.]. [M.]; 2013.

INNOVATIVE
ACADEMY